O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHAR HOKIMI

Q A R O R I

2022 - yil 4 - noyabr 373-10-148-Q/22 Angren shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2023 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 yil, 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shahslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shaharda 2023 yilga mo‘ljallab ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida shahardagi korxona, tashkilot va muassasalarga xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 7 foizlik miqdorida ya’ni **624** ta ish o‘rinlarini ajratish vazifasi yuklatilsin, shu jumladan:

14 yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota- onalar uchun – **151** o‘rin;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim mussasasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - **320** o‘rin;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – **59** o‘rin;

nogiron shaxslar uchun – **20** o‘rin;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun – **61** o‘rin;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – **9** o‘rin;

odam savdosi qurbonlari uchun – **4** o‘rin;

2. Shahar bo‘yicha ijtimoiy muhofaza muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2023 yil uchun eng kam sonini belgilab qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati yo‘nalishlar kesimida takliflar jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2022 yil 20 dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2023 yilning 10 aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ish o‘rinlari band qilingan korxona va tashkilotlar tomonidan 2023 yil 1 aprelga qadar band qilingan ish o‘rinlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15-sentyabrdagi 263-sonli qaroriga asosan belgilangan tartibda attestasiyadan o‘tkazilishi amalga oshirilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya-gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning 21-bandiga muvofiq Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha shahar hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha shahar hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

7. Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori (A.Mirzahanov)ga;

bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2019 yil 31 mayda 3163-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Nizom talablariga asosan shahar hokimining qarori bilan belgilangan rejadan ortiq toifalardan kelib chiqib, ishga qabul qilingan har bir xodim uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2 barobari miqdorida 12 oy davomida mablag‘ ajratilishini nazarda tutsin.

8. Shahar hokimining 2021 yil 9 noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 134-10-148-Q/21-sonli qarori 2022 yil 31 dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Noraliyev zimmasiga yuklatilsin.

Angren shahar hokimi v.b **A.A.Rayimov**

Angren shahar hokimining
2022 yil 4 noyabrdagi
373-10-148-Q/22-son qaroriga
1-ilova

№	Tuman (shahar) nomi	Korxona, tashkilot va muassasalar nomi	Korxona INNIsi	Jami ishlovchilar soni	Jami kvota buyicha	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolgiz va ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus,kasb-xunar ta’imi muassasalarni ta’momlaganlar	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshi uchun	Jazaoni o‘tash muassalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun
1	Angren sh	"O‘zbek ko‘mir" AJ	200899410	5875	221	51	91	30	11	5	30	3
2	Angren sh	Angren IES AJ	200595949	860	21	4	10	5	1	1		
3	Angren sh	Issiklik energiyasi DUK	200595932	230	13	6	5	2				
4	Angren sh	Suvokava DUK Angren shahar filiali	201577953	282	13	6	5	2				
5	Angren sh	Oxangoron o‘rmon xo’jaligi	200608534	384	4	2	2					
6	Angren sh	Top oil MCHJ XK	303304884	255	15	4	6	2	1	1	1	
7	Angren sh	Birininchi Rezinatexnika Zavodi	301938570	1051	48	10	24	5	2	1	5	1
8	Angren sh	Angren Line MChJ	303481183	691	45	5	40					

9	Angren sh	Natsional ceramik MChJ	303011355	298	25	8	14	2			1	
10	Angren sh	Wita ceramika MChJ	305205530	198	13	4	9					
11	Angren sh	ECOTON ShARQ MChJ	306248595	167	9	4	4	1				
12	Angren sh	Central asia sanitaryware MChJ QQ	306090716	285	15	5	10					
13	Angren sh	Great wall ceramics industries MChJ	303011355	290	13	5	5	2			1	
14	Angren sh	Angen Kaolin MChJ	301015952	160	5		5					
15	Angren sh	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	207238049	59	1		1					
16	Angren sh	Angren shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	200598944	564	24	10	2		3	1	8	
17	Angren sh	Angren shahar SEOM	200598793	97	4	2	2					
18	Angren sh	Toshkent viloyati Nogironlarni Reabilitatsiya qilish va protezlash markazi	202334645	76	5	2	3					
19	Angren sh	Bolalar shifohonasi	203381294	354	3	1	2					
20	Angren sh	Angren shahar Tibbiyot Birlashmasi	200598785	928	10	4	4	1	1			
21	Angren sh	Angren shahar Akusherlik Kompleksi	206636141	326	6	2	4					
22	Angren sh	1-Oilaviy Poliklinikasi	205167154	150	6	1	5					

23	Angren sh	2- Oilaviy poliklinika	207218706	171	8	2	5		1			
24	Angren sh	3-Oilaviy poliklinika	207218714	156	7	2	5					
25	Angren sh	4-Oilaviy Poliklinika	207218721	166	6	2	4					
26	Angren sh	Angren shahar Norkologiya Dispanseri	203304602	116	5	0	3	0			2	
27	Angren sh	Angren Elektor izolit MCHJ	301790814	73	4		3				1	
28	Angren sh	Angren Charm invest MCHJ	303941551	127	5	0	3	1			1	
29	Angren sh	Angren Pedagogika kolleji	200598739	39	1		1					
30	Angren sh	1-son kasb-xunar maktabi	2016268758	148	2	1	1					
31	Angren sh	2-son kasb- xunar maktabi	200598864	182	3	1	2					
32	Angren sh	Angren Tibbiyot kolleji	200598722	63	2		2					
33	Angren sh	Angren texnologiya texnikumi	200589896	34	1		1					
34	Angren sh	Angren kon metallurgiya texnikumi	200598840	38	1		1					
35	Angren sh	Angren Tenologiya texnikumi	200598896	69	1		1					
36	Angren sh	Limax gold textile MCHJ	30738232	187	9		9					
37	Angren sh	"Uz-Shindong silicon" MCHJ	206974829	208	10	2	5	2			1	
38	Angren sh	Armaturno-izolyatorniy zavod MCHJ	207207197	80	4		2				2	
39	Angren sh	Zero-waste MChJ	307626378	92	5						5	

40	Angren sh	«Angren NGREN Insulation» MChJ QK	305927012	200	8	1	5	2				
41	Angren sh	Istiqlol Hondji MChJ	305494735	60	1		1					
42	Angren sh	Lux keramik group MChJ	306822705	200	9		4	2			3	
43	Angren sh	Gentral Azia keramiks (paroshok)	306570165	40	1		1					
44	Angren sh	Master ideal dizayn MChJ	303936636	60	1		1					
45	Angren sh	Angren Triumf MChJ	301786975	40	1		1					
46	Angren sh	Angren Pask MChJ	200596227	271	10	4	6					